

## **YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20536941>

**Rustamova Shaxzoda Maripovna**

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasida dotsent v.b., psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik jihatlari, nikohga psixologik tayyorgarlikning asosiy mezonlari hamda oilaviy munosabatlarni shakllantirishda shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarda mas'uliyat, muloqot madaniyati, emotsional barqarorlik va oilaviy qadriyatlarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

### **Kalit so'zlar**

oilaviy hayot, nikoh, oilaviy hayot, psixologik tayyorgarlik, yoshlar, oilaviy munosabatlar, mas'uliyat, emotsional barqarorlik, oilaviy qadriyatlar.

### **Аннотация**

В данной статье анализируются психологические аспекты подготовки молодежи к семейной жизни, основные критерии психологической готовности к браку, а также роль личностных, социальных и духовно-нравственных факторов в формировании семейных отношений. Кроме того, освещаются вопросы формирования у молодежи чувства ответственности, культуры общения, эмоциональной устойчивости и семейных ценностей.

### **Ключевые слова**

семья, брак, семейная жизнь, психологическая готовность, молодежь, семейные отношения, ответственность, эмоциональная устойчивость, семейные ценности.

### **Annotation**

This article analyzes the psychological aspects of preparing young people for family life, the main criteria of psychological readiness for marriage, and the role of personal, social, and spiritual factors in the formation of family relationships. The article also highlights issues related to developing responsibility, communication culture, emotional stability, and family values among young people.

### **Keywords**

family, marriage, family life, psychological readiness, youth, family relationships, responsibility, emotional stability, family values.

Inson oilada dunyoga keladi. Murg'ak farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni qabul qilib oladi, balki u xayotda odamzotga xos bo'lgan barcha xatti-xarakat, ko'nikma, malaka hamda odob-ahloq qoidalarini ham o'z oilasida egallaydi, kamol toptiradi. Vatan mehri va go'zalligini anglash ham oiladan boshlanadi. Inson borki, tug'ilgan kunidan boshlab, o'zining ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini oilada qondiradi. Shunday ekan, oiladagi muhitning qay tarzda bo'lishi bolaning tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Milliy mafkuramizga mos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati va ona mehri orqali amalga oshiriladi. Demak, oiladagi sog'lom muhit sog'lom avlod tarbiyasining muhim manbai sanaladi.

Oilada bolaning shaxs sifatida shakllanishi uning go'daklik davridan boshlanadi. Bolalar tarbiyasiga birinchi navbatda ota va onaning o'zaro munosabatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining o'zaro samimiy munosabatlari, mehribonchiliklari, bir-biriga bo'lgan g'amxo'rlik, o'zaro hurmat bolaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona farzandi oldida o'z aql-zakovati, muomalasi, shirinso'zligi, rostgo'yligi, bilimdonligi, mehnatsevarligi bilan namuna bo'lishi zarur. Oiladagi nosog'lom muhit, ya'ni otasi ichuvchi va onasini haqoratlovchi, ota-onaning o'zaro janjallari, mehirsizlik, beparvolik, oiladagi pala-partishlik bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ota-ona farzandlarning birinchi tarbiyachisi. Chunki bola ilk tarbiyani oiladan oladi. Farzand oiladan, ota-onaning og'ushidan, qalb haroratidan, iliq nafasidan bahra olib ulg'ayadi. Oiladagi totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ijobiy muhitni qaror toptiradi, ularning kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zini oila qurishga tayyorman, deyishi uchun unda quyidagi sifatlar bo'lishi lozim. Axloqiy fazilatlar, ya'ni oila quraman, turmushga chiqaman, deyish, shaxsning bo'lg'usi turmush o'rtog'i, bo'lajak farzandlari, yangi qarindoshlari oldida ilgari tajribasida bo'lmagan mas'uliyatni bo'yniga olishni taqozo etadi. Shaxslararo munosabatlarga, hamkorlik qilishga ruhan tayyorgarlik - muomala qilish odobining bo'lishi, yangi qarindoshlar bilan hamkorlik qilishga ruhan tayyor bo'lishi. Altruizm - turmush o'rtog'i va oila a'zolariga birinchi navbatda farzandlariga nisbatan fidoiylik, sevgan insonining ko'nglini bilish va shunga qarab ish tutish. Empatiya hissi - turmush o'rtog'ining his-kechinmalariga o'rtoq bo'lish, uning o'rniga o'zini qo'ya bilish, ko'ngliga yo'l topish. Yuksak madaniyatga ega bo'lish - nikohga kirish uchun inson estetik jihatdan o'zini yuksak madaniyat sohibi sifatida tasavvur eta olishi zarur.

Bundan tashqari, oilada bo'ladigan nizoli vaziyatlarda ziddiyatli holatlardan konstruktiv tarzda chiqib keta olishga ham yoshlar tayyor bo'lishi lozim. Ko'pchilik yoshlarimiz, ayniqsa, muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yoshlar oila qurish arafasida bo'lar ekanlar, aksariyat hollarda o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari uchun o'z ota-onasi oilasini ideal qilib oladilar. Chunki ular oilada tarbiyalanar ekan, ota-onasining nizolashib tortishganini, bir-birlariga hurmatsizlik qilganlarini eslay olmaydilar.

Oila tarbiyasi masalasi buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoni ham befarq qoldirmagan. U o'zining ko'plab asarlarida oilada bola tarbiyasi, ularning salomatligi, eng muhimi mutafakkirlar ichida birinchi bo'lib bola ruhiyatini o'rganish asosida tarbiyaviy munosabatda bo'lish haqidagi fikrni ko'tarib chiqdi. Uning "Ishoroat", "Donishnoma", "Tib qonunlari", "Tadbiri manzil" va boshqa asarlarida oila va oilaviy tarbiya masalasida qimmatli fikrlar bildirilgan. Uning ta'kidlashicha, "Agar oilada, oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda yomon natijalar kelib chiqadi".

Ibn Sino oila va bola tarbiyasida shunday deydi: "Ota-onaning kim bo'lishidan qat'i nazar, ularning birinchi va eng muhim vazifasi bola tarbiyasidir". Ibn Sino oilada bolalarni tarbiyalashda uning yoshligidan boshlab faqat yaxshi qiliqlarga o'rgatishni, bu qiliq esa kelajakda uning xarakteriga aylanib mustahkam irodali bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino bola axloqining shakllanishida er-xotinning bir-biriga bo'lgan munosabati, bir-birini hurmat qilishlari ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida ta'kidlaydi. Uning fikricha, oilada bolalarni sog'lom, aqlli, axloqan pok, mehnatsevar qilib tarbiyalash ota-onalarning muqaddas burchi sanaladi. Demak, yurtimizda o'sib, ulg'ayib kelayotgan yoshlarni mustaqil hayotga qadam qo'yishlari, yetuk shaxs sifatida shakllanishlari, jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun, avvalo oilada osoyishtalik, inoqlik, toza psixologik muhitni barqarorlashtiraylik. Zero bu farzandlarimizning o'ziga, kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otishga asosiy omil bo'lib xizmat qilsin.

Oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlik deganda shaxsning nikoh va oila munosabatlarida samarali ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi tushuniladi. Bu jarayon insonning nafaqat jismoniy va iqtisodiy, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan ham yetuklikka erishishini talab etadi.

Psixologik tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- Oilaviy hayot haqida real tasavvurlarga ega bo'lish;
- Er-xotinlik vazifalari va huquqlarini anglash;
- Mas'uliyat hissining shakllanganligi;
- Muloqot madaniyati va nizolarni hal qilish ko'nikmalari;

- Emotsional barqarorlik va o'zini boshqara olish qobiliyati;
- O'zaro hurmat va hamjihatlikka tayyorlik.

Oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari:

### **1. Shaxsiy yetuklikning ahamiyati**

Oila qurish uchun insonda shaxsiy yetuklik shakllangan bo'lishi lozim. Shaxsiy yetuklik o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish, mustaqil qaror qabul qilish va hayotiy maqsadlarni belgilay olishda namoyon bo'ladi. Yetuk shaxs oilaviy munosabatlarda o'z manfaatlari bilan bir qatorda turmush o'rtog'ining ehtiyoj va qiziqishlarini ham hisobga oladi.

### **2. Emotsional tayyorgarlik**

Oilaviy hayotda turli muammo va qiyinchiliklar uchrab turadi. Shu sababli yoshlarda emotsional barqarorlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Emotsional tayyorgarlik insonning his-tuyg'ularini nazorat qilishi, stress holatlarida to'g'ri qaror qabul qilishi va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish qobiliyatini anglatadi.

### **3. Kommunikativ kompetentlik**

Samarali muloqot barqaror oilaning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, sherigini tinglash, hamdardlik ko'rsatish va kelishuvga erishish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur. Kommunikativ kompetentlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi ko'plab oilaviy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

### **4. Oilaviy qadriyatlarni shakllantirish**

Oilaviy qadriyatlar insonning oila haqidagi qarashlari va munosabatlarini belgilab beradi. Milliy an'analar, urf-odatlar, ma'naviy tarbiya va ota-ona namunasi yoshlarda sog'lom oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

### **5. Mas'uliyat hissining rivojlanishi**

Oila qurish katta mas'uliyatni talab qiladi. Yoshlarda iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish oila mustahkamligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mas'uliyatli inson oila a'zolari oldidagi burchlarini anglaydi va ularni bajarishga intiladi.

### **Xulosa**

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jamiyat taraqqiyoti va oila mustahkamligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Psixologik tayyorgarlikning yuqori darajada shakllanganligi er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning barqarorligiga, farzandlar tarbiyasi samaradorligiga va oilaviy farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida shaxsiy yetuklik, emotsional barqarorlik, kommunikativ ko'nikmalar va oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi va oilaviy munosabatlar. – Toshkent, 2020.
2. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Nishonova Z.T. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Bodalev A.A. Psixologiya obʻjeksi. – Moskva, 2018.
5. Kon I.S. Psixologiya ranney yunosti. – Moskva, 2019.
6. Abduraxmonov Q.X. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik asoslari. – Toshkent, 2022.